

**BUGUNGI KUNDA YURTIMIZDA TA`LIM TIZIMI VA JAHON  
MAMLAKATLARI TA`LIM TIZIMI**

**Qòziboyeva Mahfuza Otabek qizi**  
*Gurlan tumani 41-umumiy òrta talim maktabi*  
**Kuchkarova Gulbahor Matkarimovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jahoning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta'lif-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, makkablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lif tizimlarini yangitdan tashkil qilish haqida, ta'lif sifatini oshirish haqida, o'quvchilarni yuksak ta'lif-tarbiya berish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *taraqqiyot, ta'lif, o'qituvchi, o'quvchi, imkoniyat, chet el mamlakatlar, tajriba.*

Istiqlol tufayli jahonga yuz ochgan O'zbekiston Respublikasi uchun bugun dunyodagi taraqqiy etgan xorijiy davlatlar ta'lif tajribasini o'rganish va bizga ma'qullaridan foydalanish imkoniyatlari g'oyat keng bo'lib, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar diqqatga sazovordir.

Jahoning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta'lif-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, makkablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lif tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lif tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamic. Zotan, hozirgi zamon ta'lifida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'lifning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lif-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lqidagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'lifimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Frantsiya, AQSH, Yaponiya ta'lif-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lif markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta'lif instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

O'quv jarayonlarini tabaqlashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarining ko'pchiligidagi tadqiqotlar davom ettirilmoqda. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgarilab ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'kuvni juda erta boshlab ta'lif kurslarini o'zlashtirishda katta shov — shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda 60-yillardayloq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Iqtidorli bolalarga qarama - qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet ellik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

70- yillarda AQSH da kelajak maktabi umummilliy loyixasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishslash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishslash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz mактабдан qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkonи tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi mактабдан boshlanadi desam, o'laymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Ta'lim jarayonining ilmiy, nazariy uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika shug'ullanadi. Didaktika - grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni o'qitish, o'rgatish ma'nolarini beradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati mazmun va vazifalari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlarni bayon etiladi. Ta'lim - inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqatbilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtiroychisiga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar, avvalo o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lishi, psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlab olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ta'limning asosiy vazifasi shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni: ta'lim oluvchilarda bilim ,ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shallantiriladi

Ta'lrim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lrim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan ijodiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Ta'lrim o'quvchi-talabalarning o'zlashtirish, o'zida bilish qobiliyatlarini hamda fikrlash operatsiyalarini va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv jarayon emas, balki o'quvchiga noma'lum faol, ijodiy faoliyat, mehnat jarayonidir. Ta'lrim jarayonida ta'lrim oluvchi bilmaslikdan bilishgacha, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lrim to'grisida"gi Qonuni // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
2. Azizzxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y. 200b
3. O'quvchilarning milliy ma'naviyatini shakllantirishda boshlang'ich ta'limning o'mi" mavzusuga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent. 2010-yil.